

MAKTABGACHA TA’IIM TARBIYALANUVCHILARNING KREATIV  
TAFFAKKURINI SHAKLLANTIRISHDA IJODIY YONDASHUVLAR

*Tuxtayeva Muattar Shavkatjon qizi*

*Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Namangan filiali  
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi ikkinchi bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarning kreativ tafakkurini shakllantirish joriy davrda ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biridir. Ushbu maqolada, maktabgacha ta'limda ijodiy yondashuvlarning ahamiyati va ularning tarbiyalanuvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishdagi roli ko'rib chiqiladi. Tarbiyalanuvchilarda kreativ tafakkurni shakllantirish uchun muhim strategiyalar, usullar va faoliyat turlari analitik ravishda tahlil etiladi. Ijodiy o'yinlar, san'at va qo'llanma ishlar, shuningdek, tabiat bilan munosabatlar samarali usul sifatida ajratiladi.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lim, kreativ tafakkur, ijodiy yondashuvlar, ta'lim jarayoni, ijodiy faoliyat, g'oyalar, pedagogik metodlar, shaxsiy rivojlanish.

**Аннотация:** формирование творческого мышления дошкольников является одной из важных задач системы образования в современный период. В данной статье рассматривается значение творческих подходов в дошкольном образовании и их роль в развитии творческих способностей учащихся. Аналитически анализируются важные стратегии, методы и виды деятельности по формированию творческого мышления у школьников. В качестве эффективных методов выделяют творческие игры, декоративно-прикладное искусство, а также общение с природой.

**Ключевые слова:** дошкольное образование, творческое мышление, творческие подходы, образовательный процесс, творческая деятельность, идеи, педагогические методы, развитие личности.

**Abstract:** The formation of creative thinking in preschool education is one of the important tasks of the education system in the current period. This article considers the importance of creative approaches in preschool education and their role in the development of creative abilities of students. Important strategies, methods and types of activities for the formation of creative thinking in students are analyzed analytically. Creative games, art and crafts, as well as relationships with nature are distinguished as effective methods.

**Key words:** preschool education, creative thinking, creative approaches, educational process, creative activity, ideas, pedagogical methods, personal development.

Maktabgacha ta'lim muassasalarda yaratilgan shart sharoitlar, ushbu tizim uchun zarur bo'lgan zamonaviy texnologiyalar, didaktik materiallar va o'yinchoqlar bilan muntazam ta'minlanib borishining davlat nazoratida bo'lishi kishini quvontiradi. Maqsad esa bitta bolalarni barkamol tarzda voyaga yetkazish ularni maktab ta'limiga tayyorlash samaradorligini oshirishdir. Maktabgacha yosh - bu o'zini yorqin ifoda etish, ijodiy qobiliyatlarni namoyon qilish, bolaning ijodkorligini rivojlantirish uchun eng qulay davr hisoblanadi. Bugungi kunda MTT tarbiyachilarining eng ustuvor vazifalaridan biri "Ijodkor bolani" tarbiyalashdir. Bu jarayon qanchalik erta boshlansa samarasi shunchalik barvaqt namoyon bo'ladi va bolaning butun hayotiga ijobiy ta'sir qiladi. Zamonaviy dunyoda insonning ijodiy qobiliyatlari uning intellektining eng muhim qismi sifatida tan olinishi kerak. Insoniyat tomonidan to'plangan madaniy qadriyatlar odamlarning ijodiy faoliyati natijasidir. Kelajakda insoniyat jamiyatining qay darajada rivojlanishini yosh avlodning ijodiy salohiyati belgilab beradi. Tarbiyachi pedagoglar taqlid qilish ijodkorlikni shakllantirishning asosiy mexanizmi ekanligini unutmasligi kerak. Bu shuni anglatadiki, bolaning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun unga yaqin odamlar orasida bola o'zini tanitadigan ijodiy shaxs bo'lishi kerak. Bola uchun ijodiy xulq-atvor namunasi sifatida nafaqat ota-onalar (yoki ota-onalardan biri), balki boshqa kattalar ham (o'qituvchilar, oila do'stlari va boshqalar) harakat qilishlari mumkin. Agar bolalar uchun ota-onalar ko'proq ijodiy xususiyatlarga ega bo'lgan "ideal qahramon" bo'lsa, ayniqsa samarali bo'ladi. Aslini olganda "Ijodkorlik" - bu har xil turdagi ijodiy faoliyatning muvaffaqiyatini belgilaydigan shaxsning individual fazilatlari. Qobiliyatlarni shakllantirish haqida gapirganda, bolalarning ijodiy qobiliyatlarini qaysi yoshda rivojlantirish kerakligi masalasiga to'xtalib o'tish kerak. Psixologlarda ijodiy qobiliyatlarni juda erta yoshdan boshlab rivojlantirish kerak degan faraz mavjud. Bu gipoteza fiziologiyada o'z tasdig'ini topadi. Bolaning miyasi ayniqsa tez o'sadi va hayotining birinchi yillarida "pishadi". Bu kamolot, ya'ni miya hujayralari sonining o'sishi va ular orasidagi anatomik bog'lanishlar mavjud tuzilmalar ishining xilma-xilligi va intensivligiga ham, yangilarining shakllanishiga atrof-muhit tomonidan qanchalik rag'batlantirilishiga bog'liq. Psixologik nuqtai nazardan, maktabgacha yoshdagi bolalik ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun qulay davr hisoblanadi, chunki bu yoshda bolalar o'ta izlanuvchan, ularda atrofdagi dunyoni o'rganishga intilish kata bo'ladi. Bolalar ijodiy qobiliyatini rivojlantirish uchun asos - bu birinchi navbatda erkinlikdir.

Kreativ yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni didaktik o'yinlar orqali ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari tafakkurini rivojlantirishda innovatsion axborot texnologiyalardan foydalanish va amaliyotga keng tatbiq etish, tarbiyachilarning pedagogik va kasbiy mahorat darajasini oshirish muhim omil sanaladi. Bunda muammoli o'qitish, o'yinli texnologiyalar (rolli - ishchan o'yinlar, tadbirkorlik o'yinlari), trening, video-treninglar, muammoli seminarlar, mahorat

darslari, tyutorlik, fasilitatorlik, pedagogik muammoli vaziyatlarni yechish va tahlil qilish, “Keys-stadi”, kichik guruhlarda o‘qitish, mikro-darslar, ijodiy tadqiqotchilik metodlari, o‘quv loyhalari, autotreninglarni tashkil etish va o‘tkazish metodikasining ishlab chiqilishiga bolalar tafakkurini ta’lim metodlari orqali maqsadga erishamiz. Kreativ yondashuv asosida bolalarni tafakkurini rivojlantirishda uchburchak shakliga ega o‘xshash rasmni topib mashg‘ulot boyitiladi. Didaktik talablarga rioya qilgan hola mashg‘ulotlarni tashkil etish quyidagi komponentli bloklardan iborat bo‘lib: I blok “Ta’lim tuzilishi va mazmunini” o‘z ichiga oladi; II blok “Ta’lim shakllari”; III blok “Ta’lim usullari, vositalari va qabul darajasi”; IV blok “Baholash va o‘zlashtirish darajasi”; V blok “Kechki soatlarlarda takrorlash”; VI blok “Tarbiyachining monitoring nazorati”. Mazkur model maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilari uchun qulay va didaktik o‘yinlar orqali ham ta’lim jarayonini tizimli tartibga solish imkoniyatiga ega bo‘lgan asosiy komponenti sifatida, ilgari loyihalashtirilgan ta’lim-tarbiya jarayonining pedagogik texnologiyasi o‘zida metodlar tizimini, dasturlardan foydalanish imkoniyatlarini, ta’limning metodik usullari, tarbiyachi va bolalarning birgalikda faoliyat ko‘rsatish imkoniyatlari, ularning tafakkurini rivojlantirish maqsadi va yakuniy natijalarga erishish pedagogik ish qurollarini mujassamlashtiradi. Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarining tafakkurini kreativ kompetentligini rivojlantirish tuzilmasidan qo‘yidagi maqsadlarga erishildi. Bunda didaktik ta’limiy o‘yinlar tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o‘rtasida iliq psixologik muhit yaratishini tajribalarimiz davomida guvohi bo‘ldik. Shunga ko‘ra birgalikdagi ijodiy didaktik faoliyat - maktabgacha ta’lim yoshdagi bolalar tafakkurini rivojlantirishda muhim pedagogik omil bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur jarayonning metodik imkoniyatlari asosi sifatida ta’limning: verbal ta’lim; individual ta’lim; topshiriqli ta’lim; muammoli ta’lim; differensial ta’lim turlarini talqin etdik. Ularning elementlarini o‘zaro qo‘shib, ta’limning binar, trinar ko‘rinishlarini bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olib shakllantirish mumkin. Bularning barchasida katta va maktabga tayyorlov guruhi bolalarida ijodkorlikni tarbiyalash, tafakkur jarayonini rivojlantirish imkoniyatlari mavjud.

Ijodiy yondashuvlar tarbiyalanuvchilarga o‘z fikrlarini ochiq ko‘rsatishga, shuningdek, muammolarni yaratgan holatlarda mustaqil harakat qilishni o‘rganishga yordam beradi. Bunday yondashuvlar:

- O‘yinlar orqali amalga oshirilishi mumkin, bunda bolalar yangi g‘oyalarni kashf etadilar. Misol uchun, rolli o‘yinlar, ijodiy hikoya qilish va san‘at mashg‘ulotlari bolalarning kreativ fikrlashini rivojlantiradi.

- San‘at va hunar faoliyatlari orqali bolalar o‘z fikrlarini ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Tasviriy san‘at, musiqa va drama bolalarning ijodkorligini oshiradi.

- Muammolarni hal qilish mashg‘ulotlari tarbiyalanuvchilarni tanqidiy fikrlash va ijodiy yondashuvlar yordamida yechim topishga undaydi.

Kreativ tafakkurni shakllantirish uchun pedagoglar bir qator usullarni qo'llashi mumkin. Jumladan: g'oyalar almashinuvi: tarbiyalanuvchilar o'z g'oyalarini bir-birlari bilan baham ko'rishsa, yangi fikrlar paydo bo'ladi. Muloqot qilish: erkin muloqot yaratish orqali bolalarning fikrlash jarayonlari kengayadi. Fikrlarni aniqlashtirish: tarbiyalanuvchilar o'z fikrlarini baholashda yordam berish orqali ularni sog'lom tahlil qilish va iqtidori rivojlantirishni o'rganadilar. Kreativ tafakkur tarbiyalanayotgan bolalarning shaxsiyati va kelajakdagi muvaffaqiyatlarida muhim rol o'ynaydi. Maktabgacha ta'limda ijodiy yondashuvlarni qo'llash orqali pedagoglar bolalarning innovatsion fikrlarini rivojlantiradi va ularni kelajakda faol, ijodkor shaxslar bo'lishiga tayyorlaydi. Bu jarayon davomida oila va jamiyatning hamkorligi ham muhimdir. Oila muhiti ijodkorlikni qo'llab-quvvatlashi kerak, bu esa bolalarga o'z imkoniyatlarini ochishga yordam beradi. Shunday qilib, maktabgacha ta'limda kreativ tafakkur shakllanishi bolalarning to'laqonli rivojlanishi uchun zarurdir.

#### **Foydalanilgan adabiyot va havolalar:**

1. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida ta'lim jarayonini rejalashtirish. Shin A.V., Mirziyoyeva Sh.Sh., Grosheva I.V, T.2020
2. O'yin orqali ta'lim olish. Shin A.V., Mirziyoyeva Sh.Sh., Grosheva I.V, T.2020
3. S.X. Jalilova, S.M. Aripova "Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi" Toshkent 2017 6. Z. Nishonova, G. Alimova "Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi" Toshkent 2006
4. Nurullaev A. R. Methods of developing endurance in students through the use of folk games in physical education classes An International Multidisciplinary Research Journal. Year: 2020, Volume: 10, Issue: 11 //Online ISSN. – С. 2249-7137.
5. Нуруллаев А. Р., Гафурова М. Ю., Мансуров Ш. Ш. Деление спортивных занятий на периоды //Педагогическое образование и наука. – 2019. – No. 6. – С.
6. Нуруллаев А. Р. РЕАБИЛИТАЦИЯ СПОРТСМЕНА //Рекомендовано к изданию Советом по качеству УралГУФК Протокол No 8 от 14 мая 2018 г. – 2018. – С.